Sultonov Og‘abek Sultan o‘g‘li (Ma’mun universiteti “Falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi;
e-mail: Sultan.aga3721@bk.ru)

SHARQ FALSAFASIDA RAHBAR MAS’ULIYATINING IJTIMOIY-MA’NAVIY JIHATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shaxsning shakllanishida mas’uliyat hissini tarbiyalash muhim o‘rin tutishi, mas’uliyat shaxsning jamiyat manfaatlarini qay darajada chuqur anglay olishi haqida ilmiy mulohazalar keltirilgan. Erkin shaxs jamiyat manfaatlarini anglashi, jamiyat oldidagi o‘z mas’uliyatini chuqur his eta oladishi to‘g‘risida Sharq mutafakkirlarining fikrlari izohlangan.*

Kalit so‘zlar: *qadriyat,mas’uliyat, jamiyat, erkinlik, rahbar, «Qobusnoma», adolat, psixologiya.*

Султанов Огабек Султанович (преподаватель кафедры философии университета Мамуна)

СОЦИАЛЬНЫЕ И ДУХОВНЫЕ АСПЕКТЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЛИДЕРА В ВОСТОЧНОЙ ФИЛОСОФИИ

Аннотация. *В данной статье представлены научные соображения о важности воспитания чувства ответственности в формировании личности, а также о том, насколько ответственный человек может глубоко понимать интересы общества. Объясняются мнения восточных мыслителей о том, что свободный человек может понимать интересы общества и глубоко чувствовать свою ответственность перед обществом.*

Ключевые слова: *ценность, ответственность, общество, свобода, лидер, «Кобуснама», справедливость, психология.*

Sultanov Ogabek Sultanovich (Teacher of the Philosophy Department of Mamun University)

SOCIAL AND SPIRITUAL ASPECTS OF THE LEADER’S RESPONSIBILITY IN EASTERN PHILOSOPHY

Annotation. *This article presents scientific considerations about the importance of cultivating a sense of responsibility in the formation of a person, and the extent to which a responsible person can deeply understand the interests of society. The opinions of eastern thinkers are explained on the fact that a free person can understand the interests of society and deeply feel his responsibility before society.*

Key words: *value, responsibility, society, freedom, leader, “Kobisnoma”, justice, psychology.*

Kirish. O‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, yuksak mas’uliyatni his etish, g‘oya uchun kurashish, mustahkam e’tiqodga ega bo‘lish, o‘z fikr-mulohazalarini erkin bayon etish va ijtimoiy-siyosiy faollik shaxsga xos belgilardir. Shaxsning maqsad, g‘oya va ideallari jamiyatdagi mavjud g‘oya va mafkura bilan uzviy bog‘liq ravishda shakllanadi. Shaxs erkinligi demokratik qadriyatlar tizimida alohida o‘rin tutadi. Erkinlik – insonning intellektual-ma’naviy kamolotga erishuvining zarur sharti, anglanganligidir. Erkinlik tufayligina inson yaratuvchanlik qobiliyatini namoyon etadi, shaxsiy mas’uliyat va insoniy burchini to‘la his etadi. Shaxs erkinligi, avvalo, axloqiy, so‘z, vijdon, matbuot erkinligida ro‘yobga chiqadi. Bunday qarashning vujudga kelishi, qadriyatlarning ijtimoiy va ma’naviy yangilanishi, jamiyat a’zolarining kamoloti hamda tarbiyasidagi ahamiyati masalalariga davlat miqyosida yuksak e’tibor ko‘rsatilayotganligi mazkur soha rivojining bosh yo‘nalishidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qadriyatlar mustaqillikni mustahkamlashning ma’naviy omillaridan biri sifatida qadrlanishi borasidagi ijobiy jarayonlar tadqiqotlarni ko‘paytirish, ularga nisbatan mas’uliyatni yanada oshirishni taqozo qilmoqda. Rahbar odamlarni, jamoani boshqarishi, ya’ni yetakchilik qila olishi xususiyati bilan o‘zgalardan ajralib turadi. U mehnat jamoasida va jamiyatda barchaning ko‘z o‘ngida bo‘ladi, qo‘li ostidagilarning ish va turmushi bilan bog‘liq muammolarni, kerak bo‘lsa, taqdirini ham hal qiladi. Uning zimmasida o‘zgalarga nisbatan ko‘proq mas’uliyat bor shu ma’noda mas’uliyat zamonaviy rahbar xodimlarni tayyorlashdagi asosiy mezon bo‘lib, bu burchni bajarishda qat’i bo‘lish kerak. Rahbardagi o‘ziga xos talabchanlik, mehribonlik hamda mas’uliyat jamoa a’zolarida ham javobgarlik hissining shakllanishiga sabab bo‘ladi. Malakali rahbar kadrlar tizimini muvaffaqiyatli shakllantirishda “Ijtimoiy psixologiya”, “Rahbar psixologiyasi”, ‘Boshqaruv psixologiyasi” kabi fanlarni yaxshi o‘zlashtirishi uchun bor imkoniyatini ishga solishi kerak. Avvallari ham ko‘p bor aytgan bir fikrimni yana takrorlamoqchiman: xalq ochlikka, hamma narsaga chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi. Odil hukmdor, adolatli rahbar g‘oyasi Forobiydan Alisher Navoiygacha, yana boshqa ko‘p-ko‘p mutafakkirlarimizning ulug‘ ma’naviy ideali bo‘lib kelgan. Bularning barchasi rahbar madaniy saviyasining o‘sib borishiga va siyosiy madaniyatining takomillashuviga katta yordam beradi. Chunki cheklangan tafakkur, chala bilim, past madaniyat bilan dunyoni bilib, mas’uliyatli ish va mansabni egallab bo‘lmaydi.

Muhokama. «Qobusnoma»da aytilishicha, insonning insoniy xususiyatlaridan biri hamma ishda adolatli bo‘lishdir. «Hamma ishda adolatli bo‘l. Har kishi adolatli bo‘lsa, unga qozining keragi yo‘q». Ado-

latdan yiroq insonda na himmat va na saxovat belgilari bo‘lmaydi. Adolatni o‘zining insoniy burchiga aylantirgan kishi bag‘rikeng, nazar-u himmati baland, jamiyatda ornatilgan tartib-intizomga rioya qiladi. Kaykovusning ta’kidlashicha, inson mas’uliyatining yo‘qolishiga muhim alomatlaridan biri qing‘irlik, yolg‘onchilikdir. Xuddi shuning uchun ham, qing‘irlik, yolg‘onchilikni o‘ziga odat qilib olgan kishining oldiga bormaslik, uning suhbatida bo‘lmaslikni maslahat beradi. Chunki qing‘ir, yolg‘onchi odam hech qachon rost so‘zlamaydi. Bunday odamni faqat zo‘rlik bilan yo‘qotmoq zarur; «Nedinkim bir daraxt egri bo‘lsa, to uni chopib yo‘nmaguncha, u to‘g‘ri bo‘lmas», deb yozadi [3].

Burhoniddin Marg‘inoniy inson har qadamda ro‘baro‘ keladigan dolzarb hayotiy muammolar, jumladan, oilaviy va ijtimoiy munosabatlar, mulkchilik, savdo-sotiq, jinoyat va jazo, burch va mas’uliyatga taalluqli muammolami islom axloqi va huquqi mezonlari nuqtayi nazaridan hal etib berdi. O‘zining «Nikoh kitobi»da yoshlar tarbiyasida milliy urf-odatlaming ahamiyati haqida to‘xtalib, qadimgi milliy an’analarimizdan biri bo‘lgan nikoh bo‘lg‘usi kelinning moddiy manfaatlarining kafolatlanishiga e’tiborni qaratish zarur, degan g‘oyani ilgari surdi. Burhoniddin Marg‘inoniyning fikriga ko‘ra, jamiyatning negizi ham, inson ruhiy-ma’naviy olamining beshigi ham oiladir. Shuning uchun ham o‘rta asrning mashhur fiqhshunos olimi oilani har tomonlama mustahkamlashga zamonasining hukmdorlarini, butun ilm ahlining e’tiborini qaratadi.

Oilani mustahkamlashga qaratilgan bir qator qoidalar ishlab chiqadi va uni shariat qonunlari orqali rasmiylashtiradi. Burhoniddin Marg‘inoniyning e’tirof etishicha, oila qurayotgan kuyov va uning ota-onalari ham bir talay majburiyatlarni o‘z zimmalariga olishlari zarur. Burhoniddin Marg‘inoniy inson ma’naviyatiga doimiy ozuqa berib turadigan qudrat – ilm va ma’rifatdir deb tushuntirdi. Shuning uchun ham jam iyat ma’naviy kamoloti uchun mas’uliyatni ilm ahliga yukladi. O‘zining ilmiy-intellektual salohiyatini xayrli, xususan, odamlar orasida do‘st-u birodarlikni targ‘ibot qilish, ma’rifat tarqatish ishlariga baxshida etgan olimu fozillami ulug‘ladi. Kishilarga ma’rifat tarqatish ishlariga sarflanmagan bilim yoki ilm ahlining ishini buzg‘unchilik deb baholadi. Shuning uchun ham marg‘ilonlik fiqhshunos alloma nafaqat olim-u fuzalolar, balki oddiy fuqarolar orasida ham cheksiz hurmat-izzatga sazovor bo‘ldi. Odamlar Marg‘inoniyni «Hidoya yo‘lining sarboni» deb atay boshladilar. Musulmon olamida esa u «Burhoniddin val milla», ya’ni «din va millatning hujjati» degan yuksak e’tirofga sazovor bo‘ldi [2].

Natijalar. Abdurahmon Jomiy ham Sharqning boshqa mutafakkirlaridek, o‘zi yashayotgan jamiyatda adolat o‘rnatishni orzu qiladi. Buning uchun adolatning dushmani bo‘lgan jaholatning vujudga kelish sabablari, uni bartaraf etish yo‘llarini qidiradi. U jaholat va adolatni inson qismatining biri-biriga zid ikki tomonidir, deb tushunadi, o‘zining «Bahoriston» asarida qayta-qayta ta’kidlaganidek, hamma zamonlarda ham o‘sha ikki tomon orasida kurash davom etib kelgan. Barcha zamonlarda ham, hatto Xudoni ham aldamoqchi bo‘lgan rahbarlar «yolg‘onchi farishtalar» bo‘lganligi sir emas. Podshohlar o‘z mamlakatlarida adolatni o‘rnatmoqlari uchun, eng avvalo, fuqarolarni o‘sha «yolg‘onchi farishta»lar zug‘umidan, ulaming noinsofliklaridan himoya qilishlari zarur. Buning uchun davlatpanoh o‘ta sinchkov, o‘ta odil bo‘lmog‘i darkor. Lekin mamlakatda adolat o‘ratishda, bitta podshohning sa’y-harakati kamlik qiladi. Adolatni o‘matish, nafaqat podshohdan, balki uning mulozimlaridan (vazir-u vuzarolar), yaqin kishilaridan alohida mas’uliyat talab etadi. Agar podshoh atrofidagi mulozimlar dono kishilar bo‘lsa, mamlakatda ma’rifat, ilm quloch yozadi. Bundan fuqarolar manfaat ko‘radi, xazina javohirotga to‘ladi, deydi Jomiy. Mirza Bedil inson Olloh tomonidan yaratilgan o‘ziga xos, tengi yo‘q mo‘jiza ekanligini ta’kidlab, uni o‘zligini bilishga da’vat etadi. Inson bisotida mavjud bo‘lgan barcha imkoniyatlar–yaxshilik, ezgulikka xizmat qilmog‘i darkor. Insonning o‘zligini anglashi jamiyat, xalq oldidagi mas’uliyatini tushunib yetishga olib kelmog‘i zarur, deb hisoblaydi.

Xulosa. Vatan tuyg‘usida kishilarning o‘zi mansub bo‘lgan tarixiy birlik shakllanishiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatgan hududga nisbatan ma’naviy qarzdorligi, burch va mas’uliyati bilan bog‘liq ijtimoiy tuyg‘ulari namoyon bo‘ladi.

Vatan ana shunday tuyg‘uni uyg‘ota olgani uchun ham qadriyatdir. Chunki “Vatan deb ustida o‘tirganimiz oddiy bir tuproq emasdir,... ustida o‘tirganimiz tuproq uning yopinchig‘idir va u yoping‘ich bo‘lganligidan ham muqaddasdir”. Uning ahamiyati va qadri muayyan xalq, millat uchun beqiyos. Bu tuyg‘uni sotsiologik tekshirish natijalari bilan o‘lchash qiyin, biror kishiga esa «Vataningizni sevasizmi, uni qay darajada sevasiz?» kabi savol bilan murojaat qilish nojoiz. Shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, nafosati va go‘zalligi bilan bog‘liq qadriyatlar dialektik uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Ular umuminsoniylikning shaxs qiyofasi bilan bog‘liq namoyon bo‘lish darajasini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:
(1). Каримов И.А. Ўзбекистонинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т., "Ўзбекистон", 1992, 21-бет.
(2). Зиё Кўкалп. Туркчилик асослари, Ўзбегим. Т., "Ватан', 1992, 30-бет.
(3). Kaykovus. Qobusnoma.Toshkent, 1994, 27-bet.
(4). Бедил. Куллиёт. Бомбей, 1299 ҳиж. й. (1882).
(5). https://ru.wikipedia.org/wiki/Политический_процесс.

Sharifxodjayeva Nargiza Abdumannonovna (Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti katta o'qituvchisi; Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti mustaqil izlanuvchisi; e-mail: nargizashariff@gmail.com)

IJTIMOIY-AXLOQIY JIHATLAR KONTEKSTIDA POKISTON FALSAFASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada muallif Pokiston falsafasini uning ijtimoiy-axloqiy jihatlari kontekstida ko'rib chiqadi. Muallif Pokiston falsafasidagi turli g'oyalar, uning o'ziga xos an'analari va qadriyat yo'nalishlariga e'tibor qaratadi. Qo'yilgan muammoning asosiy holatlari hamda uning sharqshunoslik va tarixiy-falsafiy tadqiqotlardagi zamonaviy ahamiyati ajratib ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *falsafa, axloq, jamiyat, Pokiston, Sharq, islom, madaniyat, ta'lim, qadriyat.*

Шарифходжаева Наргиза Абдуманноновна (старший преподаватель Ташкентского университета информационных технологий; самостоятельный соискатель Ташкентского государственного университета востоковедения; e-mail: nargizashariff@gmail.com)

ПАКИСТАНСКАЯ ФИЛОСОФИЯ В КОНТЕКСТЕ ЕЕ СОЦИАЛЬНО-ЭТИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ

Аннотация. *В данной статье автором рассматривается пакистанская философии в контексте ее социально-этических аспектов. Автор фокусируется на различных идеях в пакистанской философии, ее самобытных традициях и ценностных ориентирах. Выделяются основные положения поставленной проблемы и ее современное значение в востоковедческих и историко-философских изысканиях.*

Ключевые слова: *философия, этика, общество, Пакистан, Восток, ислам, культура, образование, ценность.*

Sharifkhodjaeva Nargiza Abdumannonovna (Senior lecturer at Tashkent university of information technology; independent researcher of Tashkent state university of oriental studies; e-mail: nargizashariff@gmail.com)

PAKISTANI PHILOSOPHY IN THE CONTEXT OF ITS SOCIO-ETHICAL ASPECTS

Annotation. *In this article, the author examines Pakistani philosophy in the context of its socio-ethical aspects. The author focuses on various ideas in Pakistani philosophy, its distinctive traditions and value orientations. The main provisions of the problem and its modern significance in Oriental and historical-philosophical research are highlighted.*

Keywords: *philosophy, ethics, society, Pakistan, East, Islam, culture, education, value.*

Введение. Философия является одной из наиболее важных областей знания, которая помогает понять сущность окружающего нас мира и наше место в нём. Каждая страна обладает своей уникальной философской традицией, которая отражает её историю, культуру и ценности. И это фундаментально важно, поскольку, как отмечают соверменные исследователи, «в современную эпоху глобальных перемен, когда нивелируется духовное в человеке и социуме и наблюдается доминация материального и индивидуального…» [1;320 с.]. Пакистан в данном отношении не может являться исключением, а, стало быть, его философия, основанная на социально-этических принципах, по праву имеет огромное значение для современного общества.

Литературный обзор. Исследования в области пакистанской философии в отечественной истории философии остается практически неразработанной темой. Однако здесь важно упомянуть таких авторов, как С.Юлдашев, Р.Каримов, И.Гафаров, Г.Джумаев, которые рассматривают те или иные аспекты пакистанской философии с различных точек зрения. В зарубежной литературе исследования по данной теме ведут такие специалисты, как М.Степанянц, М.Хайева, А.Ясмин, R.Iqbal, T.Bhuttah, M.A.Nisar, M.Riaz Abbasi и другие. Данные исследователи более углубленно изучают пакистанскую философию как ее исторической ретроспективе, так и в современном состоянии, обращая внимание на ее социально-этический контекст.

Методология исследования. В рамках данной работы автором применялись такие классические методы, как анализ и синтез, дедукция и индукция, обобщение. Кроме этого, автор обращал-